

Jamshidbek Niyazbekov

*O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vaziri maslahatchisi
E-mail: j_niyazbekov@umail.uz*

MADANIYAT MARKAZLARIDA O'LKASHUNOSLIK KLUBLARINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-AMALIY VA MA'NAVIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada madaniyat markazlarida o'lkashunoslik klublarini tashkil etishning ilmiy, amaliy va ma'naviy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda 2024–2025-yillar davomida O'zbekiston madaniyat markazlari faoliyati tahlil qilingan hamda Turkiya, Qozog'iston va Fransiya tajribalari bilan qiyosiy o'rganilgan. Maqolada klublarni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlari, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni, statistik ma'lumotlar va xalqaro ilmiy manbalarga tayanilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat markazi, ma'naviyat, yoshlar siyosati, o'lkashunoslik, ilmiy-amaliy faoliyat, klub, madaniy meros, xorijiy tajriba.*

SCIENTIFIC, PRACTICAL, AND SPIRITUAL BASES OF ORGANIZING LOCAL HISTORY CLUBS IN CULTURAL CENTERS

Abstract. *This article discusses the scientific, practical and spiritual foundations of organizing local history clubs in cultural centers. The study analyzes the activities of cultural centers in Uzbekistan in 2024-2025 and compares them with the experiences of Turkey, Kazakhstan and France. The article discusses the organizational mechanisms of organizing clubs, their role in raising the spirituality of youth, based on statistical data and international scientific sources.*

Keywords: *cultural center, spirituality, youth policy, local studies, scientific and practical activity, club, cultural heritage, foreign experience.*

Hozirgi globallashuv davrida milliy madaniyat va ma'naviy merosni saqlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarixiy jarayonlar doirasida madaniyat va san'at sohasini yangi bosqichga olib chiqish borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Birgina misol sifatida so'nggi uch yil davomida mamlakatimiz hududida 10 ga yaqin yangi madaniyat va san'at muassasalari tashkil etilib, faoliyati yo'lga qo'yildi. Jumladan, qo'g'irchoq teatrlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, respublika bolalar kutubxonasi, madaniyat markazlari uchun yangi binolar qurilib, ta'mirlanib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi va faoliyati samarali yo'lga qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, madaniyat markazlari bugungi kunda jamiyatning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularning asosiy vazifasi aholi uchun uzluksiz madaniy xizmat ko'rsatish, turli ijodiy va ma'naviy faoliyatlar orqali insonlar ongini, dunyoqarashini va ma'naviy ehtiyojlarini boyitishdan iboratdir.

Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat markazlari nafaqat madaniy tadbirlar o'tkaziladigan maskan, balki yoshlar uchun qulay ijodiy muhit va shaxsiy rivojlanish maydoni sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish bo'yicha yangi mexanizmlarni joriy qilish muhim masala hisoblanadi.

Globallashuv jarayonida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan madaniyat markazlari zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlanib, kitobxonlik, musiqa, teatr, amaliy san'at, dizayn va o'lkashunoslik kabi yo'nalishlarda to'garaklar, kvestlar, klublar orqali yoshlarni ijodiy jarayonlarga yo'naltirilgan bo'lishi tobora sezilarli ehtiyojga aylanmoqda.

Mazkur maqolada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarida o'lkashunoslik klublarini tashkil etishning ilmiy, amaliy va ma'naviy jihatdan muhim ahamiyati hamda ushbu klublar mahalliy tarix, an'ana va milliy qadriyatlarni o'rganish, yoshlarda vatandoshlik hissini kuchaytirish hamda milliy g'ururni mustahkamlashga xizmat qilishi haqida fikr va mulohazalar boradi.

O'zbekistonda 2024-yil holatiga ko'ra 837 ta madaniyat markazi faoliyat yuritgan va ularda 4984 nafar ijodiy xodim mehnat qilib kelgan. Ushbu markazlarda

yoshlar va aholi uchun 30 dan ortiq yo'nalishlarda musiqa cholg'usi, ashula va raqs kabi yo'nalishlarida ijodiy to'garaklar tashkil etilgan [1].

Shu bilan birga, madaniyat markazlarini ijodiy laboratoriya, ma'naviy-ma'rifiy dialog maydoni va yoshlar rivojlanish platformasi sifatida rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tezlik bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda aholi ayniqsa yoshlarga muntazam yangi madaniy xizmatlar turini tashkil etish bilan birgalikda qadriyat va milliylikni eslatib turuvchi madaniy loyihalarni taklif etib borish zarurligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Aniqroq qilib aytganda, madaniyat markazlarining faoliyatini tomoshabin markazidan ishtirokchi markazga aylantirish, ya'ni aholining bevosita ishtirokini ta'minlash, ijodiy hamjamiyatni shakllantirish va mahalliy madaniy muhitni yaratish bo'yicha amaliy choralar ko'rish zarur.

Shu ma'noda madaniyat markazlarida o'lkashunoslik klublarini tashkil etish bilan madaniyat markazida aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan ilmiy-amaliy maydon yaratilishga hamda yoshlarni mahalliy madaniyat, tarix va qadriyatlarga qiziqtirish, shu orqali ma'naviy immunitetni kuchaytirishga xizmat qiladi [2].

O'lkashunoslik klublarini tashkil etishda metodik asoslar muhim hisoblanadi va klub faoliyati rejali, tizimli va monitoring asosida yo'lga qo'yilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mazkur klubda anketalash, intervyu, mahalliy ekspeditsiyalar, noyob va yo'qolish xavfi mavjud bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalarini hujjatlashtirish, ustoz-shogird an'analari asosida muloqotlarni yo'lga qo'yish kabi usullar samarali hisoblanadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Turkiyadagi 500 ga yaqin madaniyat markazlarida "Halk Evi" (Xalq uyi) madaniy tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur tizimda turk millatining tarixi va xalq og'zaki ijodini asrash, ilmiy-o'rganish va targ'ib etishga qaratilgan amaliy ishlar olib boriladi [3].

Shuningdek, Qozog'istondagi 260 dan ortiq madaniyat markazlarida "Ruxani jahg'iru" (Ma'naviy yangilanish) dasturi doirasida har bir viloyatda "O'lketanu

ortalig'i" (o'lkani o'rganish) loyihasi amalga oshiriladi hamda ularda mahalliy an'analar, hunarmandchilik va milliy urf-odatlar bo'yicha ekspeditsiyalar o'tkaziladi [4].

Bundan tashqari, Fransiyadagi 150 dan ziyod madaniyat markazlarida "L'unité de la nation" (Millat birligi) loyihasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur loyiha doirasida har bir markaz hudud tarixi va madaniy merosni tadqiq etish amaliyoti mavjud [5].

O'lkashunoslikni o'rganishga qaratilgan mazkur dasturlar va loyihalar nafaqat madaniy-ma'rifiy markaz, balki ijtimoiy faollik va ma'naviy tarbiya maskani sifatida jamiyat hayotida munosib o'rin egallab bormoqda.

O'zbekistonda ham shunday xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda o'lkashunoslik klublarini tashkil etish bo'yicha qonunchilik va metodik asoslarini yaratish mahalliy madaniyat markazlarida kadrlar tayyorlash, klub rahbarlari uchun seminarlar tashkil etish va moddiy-texnika bazani mustahkamlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Avvalo, klublar faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning tartibi va yo'nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Klub faoliyatini o'rganish, targ'ib qilish, hujjatlashtirish va ommalashtirish kabi yo'nalishlarga qaratish lozim.

Shuningdek, klub tuzilmasi va faoliyat shakllariga alohida ahamiyat qaratish lozim. Klub a'zolari 14 yoshdan katta fuqarolar bo'lishi mumkin, a'zolik ixtiyoriy bo'lib, har yili qayta tasdiqlanadigan mexanizmlarga ega bo'ladi.

Klub faoliyatini tashkil etishda ilmiy-amaliy seminarlar, ekspeditsiyalar, ekskursiyalar tashkil etish, mahalliy tarix, hunarmandchilik, folklor, urf-odatlar bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlarni hujjatlashtirish va madaniyat markazi axborot burchagida joylashtirish hamda mahalliy davlat tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida muntazam yoritib borish nazarda tutiladi.

Klub faoliyati mazmundorligini oshirish va klub a'ziligiga yoshlarni qiziqishini orttirish maqsadida yoshlar ishtirokida "O'z yurtimni kashf etaman", "Mahallam tarixi", "Qadriyatlarni asraylik" kabi loyihalarni amalga oshirish hamda

mahalliy qahramonlarga bag'ishlangan madaniy kechalar o'tkazish ijobiy natijalar beradi.

Shuningdek, hozirgi zamon axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda sun'iy intellekt (SI) tizimlarini madaniy-ma'rifiy faoliyatga joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda.

O'lkashunoslik klublari faoliyatida SI-dan foydalanish mahalliy tarixiy ma'lumotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va vizuallashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Bu orqali klublar faqat an'anaviy tadqiqot maydoni emas, balki raqamli ma'lumotlar bilan ishlaydigan innovatsion madaniy markaz sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt yordamida mahalliy yodgorliklar, hunarmandchilik buyumlari yoki folklor namunalarini avtomat tarzda toifalash va ma'lumot bazasiga joylashtirish mumkin.

Sun'iy intellekt vositalari klub faoliyatini zamonaviy tahlil darajasiga ko'tarish imkonini beradi. Masalan, yoshlar tomonidan yig'ilgan intervyular va og'zaki an'analarni ovozni matnga aylantirish texnologiyasi orqali saqlash, shevalar va dialektlarni tilshunoslik tahlilidan o'tkazish mumkin.

Shuningdek, AI yordamida tarixiy fotosuratlar va hujjatlardan ma'lumot chiqarish, interaktiv xaritalar yaratish hamda mahalliy madaniy merosning raqamli arxivini shakllantirish mumkin. Bu jarayon nafaqat ilmiy tadqiqotlarni tezlashtiradi, balki mahalliy madaniyatni yoshlar uchun qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida o'lkashunoslik klublarida virtual ekskursiyalar va 3D ekspozitsiyalar tashkil etish mumkin. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari orqali mahalliy yodgorliklar va tarixiy makonlarni "raqamli qayta tiklash" yosh avlodda yurti tarixi va qadriyatlariga nisbatan faxr tuyg'usini kuchaytiradi.

Shu tariqa, SI klub faoliyatini raqamli madaniy laboratoriya darajasiga ko'taradi, yoshlarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va milliy merosni saqlash jarayoniga yangi ilmiy-innovatsion mazmun bag'ishlaydi.

O'lkashunoslik klubi faoliyatining samaradorligi, avvalo, uning tuzilmasi va mutaxassislar jamoasiga bog'liqdir. Klub rahbari (koordinatori) faoliyatni tashkil

etish, yillik dasturni ishlab chiqish va hamkor tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish uchun javobgar hisoblanadi. Tarixshunos yoki etnograf mahalliy yodgorliklar, an'analar va hunarmandchilikni o'rganish, ekspeditsiyalarni tashkil etish hamda yoshlarga ilmiy yondashuvni o'rgatish bilan shug'ullanadi.

Axborot va media mutaxassisi esa klub tadbirlarini hujjatlashtirish, foto-video arxiv yaratish va ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatni yoritish vazifasini bajaradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari mutaxassisi raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, sun'iy intellekt va virtual ekskursiya texnologiyalarini joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

Klub tarkibida yoshlar yetakchisi, kutubxonachi va turizm yo'nalishidagi gid mutaxassislar ham faoliyat yuritishi zarur. Yoshlar yetakchisi yosh avlodni mahalliy tarix va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Kutubxonachi va arxivchi mahalliy manbalar, hujjatlar va ekspeditsiya materiallarini jamlab, "o'lkashunoslik burchagi"ni shakllantiradi. Gid-ekskursovod esa mahalliy yodgorliklar bo'yicha ekskursiyalar tayyorlab, madaniy turizmni rivojlantirishda ishtirok etadi. Bunday tarkibiy tizim orqali klub nafaqat ta'limiy va ma'naviy, balki ilmiy-innovatsion markaz sifatida jamiyat hayotida faol o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o'lkashunoslik klublari madaniyat markazlarining ilmiy-amaliy faoliyatini boyitadi, aholida madaniy faollik va vatanparvarlik ruhini oshiradi. Bunday klublarni tashkil etish orqali madaniy turizm rivojlanadi, mahalliy hunarmandchilik va xalq ijodiyoti yangi quvvatga ega bo'ladi. Madaniyat markazlari tizimida o'lkashunoslikni rivojlantirish yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy identichlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, bu yo'nalishda qonunchilik bazasini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni lokal sharoitda tatbiq etish va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
– Stat.uz, 2024.
2. Yuz.uz portal. Milliy madaniy markazlarga grantlar ajratildi, 2024 yil.
3. Kultur.gov.tr. Halk Evi tizimi bo'yicha ma'lumotlar, Turkiya, 2024.
4. Ruhani.kz. Рухани жаҳон дустури haqida, Qozog'iston, 2024.
5. Ministère de la Culture (France). Maison de la Culture loyihalari, 2024.